

**O'ZBEK TILIDAGI LEKSIK BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK
TADQIQI****(Maqol va frazeologizmlar misolida)****Shukurova Sevara Sodiqovna**

Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18147263>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilidagi maqol va frazeologizmlarning lingvokulturologik xususiyatlari tadqiq etilgan. O'zbek xalq maqollari va iboralari asrlar davomida shakllangan hayotiy tajribalar, diniy e'tiqodlar va ma'naviy qadriyatlarning ifodasi hisoblanganligi bois misollar asosida yoritilgan. Maqollardagi etalon so'zlar, ramziy obrazlar va metaforik ifodalar o'zbek xalqining tarixi, urf-odatlar, ma'naviy qadriyatlari va dunyo qarashini aks ettiruvchi muhim lingvokulturologik birliklar sifatida tahlil etilgan. Tadqiqot zamonaviy tilshunoslikning kognitiv-diskursiv yo'nalishi va etnolingvistik yondashuv asosida olib borilgan. Tadqiqot natijasida o'zbek xalqining mehmondo'stligi, qo'shnichiligi, oilaparvarligi kabi milliy xususiyatlari maqol va iboralar orqali qanday namoyon bo'lishi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, maqol, frazeologizm, milliy madaniyat, o'zbek tili, etalon, lingvomadaniy birlik, paremiologik fond, xalq og'zaki ijodi, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, til va madaniyat.

Аннотация. В данной статье исследуются лингвокультурологические особенности пословиц и фразеологизмов узбекского языка. Поскольку узбекские народные пословицы и устойчивые выражения являются отражением жизненного опыта, религиозных верований и духовных ценностей, формировавшихся на протяжении веков, они освещаются на основе конкретных примеров. Эталонные слова, символические образы и метафорические выражения в пословицах анализируются как важные лингвокультурологические единицы, отражающие историю, обычаи, духовные ценности и мировоззрение узбекского народа. Исследование выполнено на основе когнитивно-дискурсивного направления современной лингвистики и этнолингвистического подхода.

В результате исследования показано, каким образом такие национальные особенности узбекского народа, как гостеприимство, добрососедство и ориентированность на семейные ценности, проявляются через пословицы и фразеологизмы.

Ключевые слова: лингвокультурология, пословица, фразеологизм, национальная культура, узбекский язык, эталон, лингвокультурная единица, паремиологический фонд, устное народное творчество, национальные ценности, обычаи, язык и культура.

Abstract. This article examines the linguocultural features of proverbs and phraseological units in the Uzbek language. Since Uzbek folk proverbs and idiomatic expressions represent life experience, religious beliefs, and spiritual values formed over centuries, they are elucidated through illustrative examples. Standard (etalon) words, symbolic images, and metaphorical expressions in proverbs are analyzed as important linguocultural units that reflect the history, customs, spiritual values, and worldview of the Uzbek people. The study is conducted within the framework of the cognitive-discursive direction of modern linguistics and an ethnolinguistic approach.

As a result of the research, it is demonstrated how national characteristics of the Uzbek people—such as hospitality, good neighborliness, and family orientation—are manifested through proverbs and phraseological units.

Keywords: *linguoculturology, proverb, phraseological unit, national culture, Uzbek language, standard (etalon), linguocultural unit, paremiological fund, folklore, national values, customs, language and culture.*

KIRISH

Har bir xalq tilidagi maqol va iboralar asrlar davomida juda katta hayotiy tajribalar asosida sayqallanib, turli vositalar bilan kelajak nasllarga meros qilib qoldiriladi. Shu sababdan ham ular bebaho meros hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, xalqning benihoya boy tarixiy-madaniy, etnik-ma'naviy tajribalari, ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari, ya'ni uning o'zigagina xos olamning lisoniy manzarasi til vositasida shakllangani kabi mazkur tajribalarning barchasi aynan xalqning tilida o'z ifodasini topadi.

Tilning paremiologik fondini xalq durdonalaridan tuzilgan va uning madaniyatidan mustahkam o'rin olgan javohir sandig'i deyish mumkin. Ma'lumki, maqol va matallar folklorshunoslikda janr matnlari sifatida keng o'rganilgan. Ularni tilshunoslikda, xususan, lingvokulturologiyada o'rganish endi boshlanmoqda. Pragmatik nuqtayi nazardan maqollar turli maqsadlarda, jumladan, ayni maqol kesatish, yupatish, o'git berish, maslahat berish, saboq berish, ogohlantirish, tahdid qilish va h.k. qo'llanishi mumkin. Biroq har qanday maqol va matal ham lingvokulturologik tadqiqotlarning predmeti bo'lavermaydi. Bu o'rinda faqat muayyan xalq yoki etnosning tarixi, madaniyati, turmushi, ma'naviyati va h.k. bilan chambarchas bog'liq bo'lgan maqol va matallar o'rganilishi lozim bo'ladi. Masalan, Andijonda mehmon kelgan xonadonga hurmat yuzasidan qo'shnilar dasturxon chiqazishadi. Shuningdek, o'zbek xonadonlarida qo'shnilar o'rtadagi devorning biror yeridan teshik ochib qo'yishadi. Bu teshik orqali bir-birlaridan hol-ahvol so'rashadi, tansiq ovqat qilganlarida biron idishda shu ovqatdan uzatishadi. *Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan* maqoli ana shu odatning ta'siri tufayli yuzaga kelgan.

Mavzuni o'rganilganlik darajasi. Bu masala yuzasidan xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan muhim ilmiy tadqiqotlar olib borilib, nazariy xulosalar ilgari surilgan.

Xorijiy tilshunoslikda V.V. Vinogradov frazeologizmlarni milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettiruvchi birliklar sifatida baholagan. **B.A. Larin** frazeologik birliklar xalq dunyoqarashi va jamiyat mafkurasi bilan uzviy bog'liq ekanini ta'kidlagan. **F.I. Buslayev** esa frazeologizmlar va maqollarni millat ruhini ifodalovchi hikmatli birliklar deb hisoblagan.

Lingvokulturologiyaning nazariy asoslari **V.N. Teliya, Yu.S. Stepanov, N.D. Arutyunova, E.M. Vereshagin va V.G. Kostomarov** tadqiqotlarida chuqur yoritilgan bo'lib, ularda til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik asoslab berilgan.

O'zbek tilshunosligida T. Mirzayev, N. Mahmudov, A. Nurmonov, Sh. Rahmatullayev, E. Begmatov, A. Hojiyev kabi olimlar maqol va frazeologizmlarning milliy-madaniy mohiyatini tadqiq etib, muhim ilmiy manbalarni yaratdilar. Zamonaviy o'zbek tilshunosligida lingvokulturologiya va konseptologiya yo'nalishlari **M. Mahkamova, G. Shodmonova, Z. Abdullayeva** tadqiqotlarida rivojlantirildi. Shuningdek, **A. G'ulomov, H. Hasanov, Q. Yoqubovlar** tomonidan maqollar va frazeologizmlarning leksik, semantik va sintaktik xususiyatlari tahlil qilinib, ularning o'zbek tili tizimidagi o'rni ilmiy asosda yoritilgan.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot jarayonida bir-birini to'ldiruvchi kompleks metodlar qo'llanildi. Asosiy metod sifatida *tavsifiy metod*dan foydalanilib, o'zbek xalq maqollaridagi konseptlarni ifodalovchi leksik birliklar to'plandi, ularning shakli, mazmuni va qo'llanish xususiyatlari tavsiflandi.

Lingvokulturologik tahlil orqali maqollardagi leksik birliklarning milliy-madaniy semantikasi, etalon so'zlar va ramziy obrazlar aniqlanib, til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik yoritildi.

Semantik va komponent tahlil metodlari yordamida leksik birliklarning ma'no strukturasi, asosiy va ko'chma ma'nolari, semantik komponentlari hamda yashirin mazmuni ochib berildi.

NATIJALAR

Olib borilgan lingvokulturologik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, o'zbek xalq maqollari va frazeologizmlari millatning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, diniy qarashlari, ijtimoiy munosabatlari va ma'naviy qadriyatlarini mujassamlashtirgan barqaror til birliklari hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida maqollar va iboralarda qo'llangan leksik birliklar nafaqat nominativ ma'noda, balki chuqur madaniy, ramziy va konseptual mazmun yuklagani aniqlandi.

Tahlil natijasida "non", "do'ppi", "beshik", "holva", "hashar", "belbog'", "doka ro'mol" kabi birliklar o'zbek xalqining madaniy xotirasida etalon vazifasini bajaruvchi lingvomadaniy birliklar sifatida faol ishtirok etishi aniqlashtirildi. Ushbu birliklar orqali xalqning mehmondo'stlik, ahillik, qo'shnichilik, oilaparvarlik, kattaga hurmat, mehnatsevarlik, qanoat, diniy e'tiqod va vatanparvarlik kabi asosiy milliy qadriyatlari ifodalanadi.

MUHOKAMA

Maqollar xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribalari, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat'iy qutbiylikda ifodalar ekan, ularda har bir so'zning ma'no xilma-xilligi, iboralarning turg'unligi, shaklliy barqarorlik ustunlik qiladi¹. Maqollar ham xalqning milliyligi, urf-odatlarini, asriy tajribalar natijasida chiqargan xulosalarini o'zida kas ettiruvchi xalq og'zaki ijodi namunasi sanaladi. Maqollarda ma'lum ma'noda millatning madaniyati aks etadi. Shu sababli o'zbek xalq maqollarini lingvokulturologiyaning obykti sifatida tahlilga tortishga harakat qildik.

Bir mayizni qirq kishi bo'lib yeydi. O'zbek xalqiga xos bo'lgan eng oliy xususiyatlardan biri ahillik, inoqlikdir. Bu bizga ajdodlarimizdan singgan fazilatdir. Bir mayizni qirqqa bo'lib yeyishlik, o'zi yemay o'zgaga ilinishlik xalqimizga xos bo'lgan insoniy fazilatlarga ishora qiladi.

Bug'doy noning bo'lmasa ham bug'doy so'zing bo'lsin. O'zbek xalqi eng mehmondo'st, xushkalom xalqlardan sanaladi. "Mehmon otangdan ulug'" degan naqlni o'ziga bayroq qilib oladi-da, o'zi yemay mehmonga tutadi, borini unga ilingisi keladi. Agar mehmonning qornini to'qlashga qurbi yetmasa, hech bo'lmaganda ikki og'iz shirin so'zi bilan uni siylagisi keladi. Shu ma'noda bug'doy so'zi o'zbek xalq madaniyatini o'zida aks ettirgan etalon sifatida kelgan.

Bosh omon bo'lsa do'ppi topilar. Ushbu maqolda inson yaxshi va yorug' kunlarga sog'lik, tinchlik-xotirjamlik, omonlik bo'lsagina erishishi mumkinligi ma'nosi ifodalangan. Bosh kiyim sifatida bu yerda qalpoq, shapka, shlyapa so'zlari emas, do'ppi so'zi keltirilgan.

Ma'lumki, do'ppi o'zbek xalqining milliy bosh kiyimi sanaladi. Shu o'rinda lingvomadaniy birlik sifatida etalon vazifasini bajarib kelgan.

¹ Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent. 2013. – B. 5.

Do‘ppining ichida odam bor. Bu maqol mazmunan “Devorning ham qulog‘i bor” maqoliga o‘zaro sinonim hisoblanadi. Bu maqolning tahliliga to‘xtalsak, har bir narsani har joyda aytmaslik kerakligini uqtiradi, kishini ogohlikka xushyorlikka chorlaydi. Unda ham etalon sifatida do‘ppi so‘zi olingan.

Non ham non, ushog‘i ham non. Dunyoda o‘zbekchalik nonga yuksak hurmatda bo‘lgan xalq bo‘lmasa kerak. Ulug‘larimiz ham “Nonday aziz bo‘lgin” deb duo qilishadi. Farzandlarga yoshligidan “Nonni ushatmay ye”, “Nonni bosma”, “Nonni ko‘zingga sur” deya tarbiya berishadi. Bularning barchasi xalqimizda nonga bo‘lgan e‘tibor, o‘zbekona qarashdan darak beradi. Chunki, bu qarashga ko‘ra, nonni qadrlamaslik, unga nisbatan isrofgarchilik yo‘qchilikka olib keladi, hatto bu gunoh ish sanaladi.

Nafsi yomon hayitda o‘lar. Islom dinida nafsini tiyolmaydigan, badnafs kimsalar hamisha qoralanib kelgan. Chunki, diniy manbalarda ko‘p yeyish qalbni o‘ldiruvchi illat deya keltiriladi. Shunday qarashlar ta‘sirida xalqimiz orasida ushbu maqol kelib chiqqan. Negaki, nafsini tiya olmaydigan inson bayramda (Hayit musulmon davlatlari uchun bayram sanaladi) o‘ladi. Bayram bo‘lgandan keyin to‘kin-sochinlik bo‘lishi tabiiy. Ushbu maqolda xalqimizga xos bo‘lgan islomiy qarash o‘z aksini topgan.

Ona yurti – oltin beshig. O‘zbek tilida beshik so‘zi muqaddas. Chunki, yangi tug‘ilgan chaqaloqni turli odat-u irimlari bilan beshikka yotqizishadi. Tom ma‘noda aytganda, beshik deganda o‘zbeklar vatanini tushunadi. Bu so‘z milliy ruh bilan sug‘orilgan bo‘lib, lingvomadaniy birlik hisoblanadi.

Yaxshi gapga ham, yomon gapga ham farishta omin deydi. Davlatimizning rasmiy dini sanalgan Islomda kishi har biri daqiqada yaxshi niyatda bo‘lishi kerakligi uqtiriladi. Sababi bizning har bir aytgan so‘zimizga farishtalar omin deyishi mumkinligida. Agar beixtiyor sovuq nafas (niyat) qilib qo‘ysang-u, unga farishta omin deb qo‘ysa, holimizga voy. Shuning uchun o‘tayotgan har bir daqiqamizda Ollohga shukr qilib, yaxshi narsalarni ko‘zlab yashashimiz zarur.

Bu qarash har birimizni qanoatli bo‘lishga undaydi. Bu maqolda ana shu diniy qarash orqali xalqimizning milliy o‘ziga xosligi ifodalangan.

Yaxshi mehmon osh ustida. Azal-azaldan mavjud bu maqol zamirida ham o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan holat aks ettirilgan. Oila dasturxon atrofida to‘planib o‘tirgan paytda kimdir kelib qolsa, unga qarata “Yaxshi mehmon osh ustida”, “Yaxshi kishi osh ustida keladi”, “Qaynonangiz sizni juda sevar ekan” kabi maqollarni qo‘llaymiz. Bunday holat o‘sha insonning yaxshi fazilatli ekanligidan dalolat beradi. Bu ham, albatta, xalqimizga xos bo‘lgan madaniyatning ifodasidir. Ya‘ni o‘zbek madaniyati o‘zbek tilida o‘z aksini topgan.

Yon qo‘shnim – jon qo‘shnim. O‘zbeklarda qo‘shniga azal-azaldan katta e‘tibor va hurmat qaralgan. Bir bolaga yetti mahalla ota-ona kabi maqollarning ham kelib chiqishi mana shunday hurmat va e‘tiborning natijasidir. Hatto, diniy manbalarda ham agar ovqat qilsang, hidi qo‘shningnikiga yetib borsa, o‘sha ovqatdan qo‘shniga ham berish kerak deyilgan. Shundan kelib chiqqan holda, dono xalqimiz “Yon qo‘shning-jon qo‘shning” deb atashgan. Bu maqolda ana shu o‘zbekona ruh va man‘naviy qadriyat sezilib turadi.

Yosh kelsa – ishga, qari kelsa – oshga. O‘zbek xalqida qariyalarni farishtaga qiyoslashadi. Shuning uchun qarisi bor uyning parisi bor deyishadi. Shu tufayli ham qariyalar qay vaqt kelmasin, ularni hurmatlab to‘riga o‘tirgizib, oshga tortishgan. Shuning uchun yosh kelsa – ishga, qari kelsa – oshga deyishgan. Bu maqolda garchi etalon ishtirok etmagan bo‘lsa-da, lekin o‘zbeklarga xos milliylik ruhi sezilib turadi.

Er-xotinning urushi – doka ro‘molning qurishi. Oila muqaddas dargoh sifatida e‘zozlanadi. Lekin mana shu muqaddas dargohda ham ba‘zan ahamiyatga molik bo‘lmagan janjallar uchrab turishi hech birimizga sir emas. Ma‘lumki, janjallarning aksariyat qismi uzoq muddatli gina bilan yakun topadi. Ammo oiladagi er-xotin urushi kamdan-kam hollarda araz bilan yakunlanadi. Biroq bu arazning vaqti ma‘lum bir muddat ya‘ni doka ro‘mol qurishiga ketgan vaqt kabi qisqadir. Shuning uchun xalqimizda “Er-xotinning urushi – doka ro‘mol qurilishi” kabi maqollar yuzaga kelgan. Ushbu maqolda etalon sifatida olingan doka ro‘mol ham milliy kiyimlarimizning tarkibiy qismi bo‘lgan bosh kiyim hisoblanadi. O‘zbek ayollari bu bosh kiyimdan turli xil marosimlarda foydalanishadi.

Hashar qildim-uy qurdim, Bunda ko‘p hikmat ko‘rdim. Hashar o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan udum sanaladi. Ya‘ni uy ko‘tarmoqchi (qurmoqchi) bo‘lgan yoki mamlakat obodonchiligi yo‘lida qilinadigan umumxalq mehnatidir. Bizga ma‘lumki, hasharga do‘st-u birodarlar, yaqin qarindoshlar yordamga keladi. Hasharda birdamlik, ahillik kabi samimiy tuyg‘ular o‘z aksini topadi. Shuning uchun, hashar qilgan inson ko‘p hikmatlarning guvohi bo‘ladi. Ya‘ni do‘stlarining sadoqatini, mehribonligini ko‘radi. Bu maqolda etalon sifatida olingan hashar so‘zi lingvomadaniy birlik sanaladi.

Holva degan bilan og‘iz chuchimas. Bu maqol mazmunan “Olma pish, og‘zimga tush” maqoliga sinonim. Zamirida, dangasalik, tayyorga ayyorlik kabi xislatlarni qoralab, mehnatsevarlikka, o‘zi ishlab, halol mehnat bilan pul topishga chorlaydi. Ya‘ni inson biror nimani orzu qilganligi bilan u amalga oshib qolmaydi, uning amalga oshishi uchun, albatta, harakat qilish kerakligi uqtirilmoqda. Etalon bo‘lib kelgan so‘z “holva” o‘zbek milliy shirinligi hisoblanadi.

Kelinni kelganda ko‘r, sepini yoyganda ko‘r. O‘zbek xalqining to‘yi hech bir xalqda takrorlanmas urf-odatlariga boydir. Ayniqsa, nikoh to‘ylari o‘zgacha shukuh bilan o‘tadi. Bu shukhga kelin yanada o‘zgacha zavq bag‘ishlaydi. Xalqimiz hamisha azal-azaldan mukammallikka intilgan. Shuning uchun ham kelinni shunday mukammallik darajasida ko‘rishga intilgan. Ya‘ni epli ham sepli ham bo‘lishini xohlaganlar. Kelinning sepi uning ziynati, fayzi sanaladi. O‘zbek xalqida qizga, ya‘ni bo‘lajak kelinga sep, sarpo-surug‘ qilish odati katta ahamiyatga ega.

Tilning frazeologik fondi xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma‘lumotlar manbayi sanaladi. Frazeologizmlarda muayyan xalqning miflari, udumlari, rivoyatlari, taomillari, urf-odatlari, ma‘naviyati, axloqi va h.k. haqidagi tasavvurlari mujassamlashgan bo‘ladi. O‘zbek va qoraqalpoq tilidagi iboralarda ham ikki xalqning butun tarixi va qarashlari aks etganligini ko‘rishimiz mumkin.

Frazeologizmlar tadqiqi bilan shug‘ullangan olimlar iboralarning xususiyatlari semantik jihatlar haqida o‘z fikrlarini bayon etib o‘tishgan shulardan, mashhur rus tilshunosi B.A.Larinning ta’kidlashicha, “Frazeologizmlar har doim xalq dunyoqarashi, jamiyat tuzilishi va o‘z davrining mafkurasini bilvosita aks ettiradi”.

Tilshunoslik va lingvokulturologiya bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borgan olim F.I.Buslayevning fikriga ko‘ra, “frazeologizmlar o‘ziga xos kichik dunyo bo‘lib, ular ajdodlar tomonidan avlodlarga meros qilib qoldirilgan axloqiy qoidalar va haqqoniy fikrlarni o‘z ichiga olgan qisqa, hikmatli ifodalardir. Ular millatning o‘ziga xos ruhini betakror obrazlar vositasida ifodalaydigan har qanday milliy tilning jonidir²”.

² Буслаев Ф.И. Русские пословицы и поговорки собранные и объясненные. - М.. 1954. -С. 37.

Ushbu fikrlardan kelib chiqib shularni aytish mumkinki, frazemalarda odob-axloq masalalari keng aks etadi va bu xalq ongi tafakkuriga katta ta'sir o'tkazadi. O'zbek va qoraqalpoq tilidagi iboralarda ham milliylikni namoyon etuvchi, ma'naviy kamolotga undovchi, insoniy hislatlarni shakllantiruvchi mazmun ko'lamini keng bo'lgan frazemalar talaygina.

Lingvokulturologiyaning obyekti sanalgan barqaror birikmalardan biri frazeologizm, ya'ni iboralardir. Iboralar tilni, uning mazmunini yanada boyituvchi ma'naviy xazina bo'lib, ular ham lingvokulturologik obyekt sifatida millatning madaniyatini o'zida jamlovchi til birligi hisoblanadi. Quyida bunday iboralardan ayrimlariga to'xtalib o'tamiz:

Qulog'ini tishlab qo'ymoq. Bu iborali xalqimizga xos milliy urf-odat o'z aksini topgan, ya'ni beshik ketdi odati. Hali beshikdagi qizchaga to'rt-besh yashar bolani "yor" qilib, "holva"ning qulog'ini tishlatish. Bu odat turk o'zbek xalqlarida qadimdan mavjud. "Qulog'i tishlab" deganda biror ish, masalalar oldindan kelishib, hal qilib qo'yilgan ma'nosi anglashiladi.

Ishni pishitib qo'ygan ma'noda

Quloqqa azon aytmoq. Musulmonchilikda bola tug'ilib, kichik chillasi chiqqach, bir mulla chaqirib, uning qulog'iga azon aytiladi. Azon aytilganda bolaning qulog'i ochiladi. Bu iborada ham xalqimizga hos bo'lgan diniy aqida o'z ifodasini topgan.

Boshini ikkita qilmoq. O'z ma'nosi yo'q, ko'chma ma'noda uylantirib boshini ikkita, oyog'ini to'rtta qilmoq tushuniladi. Ola xurjunni (ro'zg'or) yelkaga tishlamoq. Xalqimizda ikki yoshni nikohlab, bir yostiqa bosh qo'ydirishni "Boshini ikkita qilish" iborasi bilan ta'riflanadi.

Yelkamning chuquri ko'rsin. Xalqimiz orasida keng tarqalgan bu iborada ham o'zbekona qarash, taomil o'z aksini topgan. O'ta norozilik, ozurda bo'lish, jonga tegib ketish, bezori bo'lish xulosasi. "Bu joylarni yelkamning chuquri ko'rsin", - deyilganda qayta bu joylarga kelmasligi tushuniladi. Yelkaning chuqurida (o'mrov suyagi) suv turmaydi. Unda suv saqlash amri mahol. Mening bu yerga kelishim, qasamimni buzishim ham xuddi shunday gap, degan qiyos qilinadi.

Oyoq uzatmoq. Iboraning bir nechta ma'nolari mavjud: oyoqni uzatmoq, cho'zmoq, chigilini yozmoq, dam olmoq kabi. Bu iboraning ko'chma ma'noda ifodalovchi insonning o'limi, hayotdan ko'z yumish o'ttenkalarida nozik so'z o'yini mavjud. Jumladan, Bobom oyog'ini uzatdi. Xalqimizga xos bunday iboralarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Misol uchun, "Yo'qolib qoldi" iborasi ham mazmunan "Oyoq uzatmoq" bilan bir. "Buvim yo'qolib qoldi" yoki "Amakim yo'qoldi" kabi. Bu iboralar yurtimizning janubiy viloyatlarida faol qo'llaniladi.

Belida belbog'i bor. O'zbek odamning ishonchli, puturli, tayinli, diyonatligini bilmoqchi bo'lsa, belida belbog'i bormi, deydi. Belda belboqning bo'lishi – suyansa, ishonsa, qo'shilsa bo'ladigan odam mazmunini tashiydi. Bu ibora (belingda belbog'ing bormi?!) kishi hamiyatiga tegish, yigitmisan o'zi, qabilida raqibning jig'iga, g'ashiga tegish maqsadida ishlatiladi. O'zbek xalqida belida belbog'i borlik yigitlik, juvonmardlik, tayinli, subutli, diyonatlik garovi.

Jonini jabborga bermoq. Bu ibora ilohiy ma'noda "Jonim tasadduq" iborasining muqobili sanaladi. Jonini timoq, jon koyitib, kuydirib, sidqidildan, vijdonan mehnat qilmoq, faoliyat ko'rsatmoq, e'tiqod, qat'iyat bildirmoq, sig'inish. Jonini jabborga berish – xudo, haq yo'lga tikishi, bag'ishlashidir. Bu iborada o'zbek xalqining diniy e'tiqodi islom dini ruhi yaqqol sezilib turadi.

Qo'lini paxsa qildi. G'azab, vajohat ichida qo'lni silkib (qilichga, xamjarga o'xshatib) gapirish. Paxs so'zi qalin devor ma'nosida bo'lib, loy (paxsa) urilganda qavat-qavat qilib uriladi.

Qo'lning g'azab bilan uzatilgan holda baland-past yurishi paxsa qavatlariga o'xshatiladi. Bu kabi o'xshatish va metaforalarda ham xalqchillik o'z ifodasini topadi.

Yelka tutmoq. Bu ibora juda ko'p ma'nolarda qo'llanilib, o'zbek xalqiga xos bo'lgan eng go'zal odatlardan biri bo'lgan, salomlashish, ko'rishish ma'nosini ham tashiydi. Bunda ko'rishmoqchi bo'lgan katta yoshli ayollarga (jumladan, qaynonaga) engashib (yelkaga qoqishi uchun) yelka tutiladi. Bu odat kattaga hurmat, kamtarinlik, odob yuzasidan amalga oshiriladi.

Oyoq bosish. Bu ibora o'z va ko'chma ma'nolarda ishlatiladi. Oyoq bosmoq – sinib tuzalgan oyoqning ilk bor yerga bosish yoki go'dakning atak-chechak bilan birinchi qadamlarini qo'yishi kabilarda o'z ma'nosida qo'llangan. Shuningdek, “Oyoq bosish” o'zbek xalq odati ham bor. Kelin-kuyov ilk bor chimildiqqa kirganda oyoq bosish odati amalga oshiriladi. Taomilga ko'ra kim kimning oyog'ini birinchi bo'lib bossa, qurilayotgan oila, ro'zg'orga o'sha bosh bo'ladi, deyishadi. Musulmonchilik – o'zbekchilikda yigit oilaga bosh bo'lishi tabiiy. Shuning uchun ham kelin nazokat bilan, kuyoviga oyoq bostirar ekan, so'ng irimiga o'zi ham beginning oyog'ini bosgan bo'ladi. Bu o'zbek xalqining noyob, milliy va qadimiy urf-odati sanaladi.

XULOSA

O'zbek xalqi purma'no so'zga, o'git-u naqlarga boy xalq sanaladi. Ajdodlarimiz azaldan o'zining hayotiy muammolarini – mehnat mashaqqati, g'am-anduhi, rohat-farog'ati, muvaffaqiyat va mag'lubiyati, rasm-rusumlari – hamma hammasini maqol va matallarda, naql va barqaror iboralarda ko'zgudagidek aks ettirib keladi. Xalqning til boyligi – uning bo'yoqdor, serjilo leksikasining, frazeologiya qatlamining boyligi bilan ham o'lchanadi. O'zbek tili – ona tilimizning juda boy, ma'nodor, jozibali va rang-barangligi Navoiy zamonidayoq isbotlangan.

Xulosa qilib aytganda, har bir xalq va millatning o'ziga xos tarixi mavjud. Xalq bormillat, madaniyat, poetik va adabiy meros urf-odat mavjud. Shunday ekan, o'zbek xalqi ham o'zining sermazmun tarixi, milliy madaniyati, poetik ijodi va milliy tili bilan faxrlansa arziydi.

Chunki uning mazmunli tarixi, poetik ijodi va serjilo tili asrlar qa'ridan hozirgi kungacha saqlanib kelmoqda.

O'zbek xalq maqol va iboralari ham ana shunday madaniy meros namunalaridan sanaladi. Ularda xalqning boy tarixi, pand-nasihat, falsafiy-didaktik qarashlari aks etgan, boy tili, uning sintaktik qurilishi o'z aksini topgan. Maqol va iboralar tilning asosiy boyligi, ko'rki sanaladi. Shuning uchun ham xalq og'zaki ijodining eng ommaviy va qadimiy janri sifatida asrlar davomida yashab kelmoqda va boyib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hasanov H. O'zbek tili frazeologiyasi masalalari. – Toshkent: Fan, 1965
2. Ereshagin E.M., Kostomarov V.G. Yazyk i kultura. – Moskva: Russkiy yazyk, 1990.
3. Shodmonova G. O'zbek tili frazeologizmlarining milliy-madaniy xususiyatlari // *O'zbek tili va adabiyoti* jurnali, 2021, №3.
4. Abdullayeva Z. O'zbek tilida konsept va uning lingvokulturologik talqini // *Til va adabiyot ta'limi*, 2020, №4.
5. Mirzayev T. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Fan, 2019
6. Yoqubov Q. O'zbek xalq maqollarining semantik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2005
7. Abdullayeva Z. O'zbek tilida konsept va uning lingvokulturologik talqini // *Til va adabiyot ta'limi*, 2020, №4.